



2026-YIL – MAHALLANI RIVOJLANTIRISH VA JAMIYATNI YUKSALTIRISH YILI

2020-yil 25-yanvardan chiqa boshlagan

YANGI

Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari

O‘ZBEKISTON



Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 271 (1597), 2025-yil 27-dekabr, shanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



BIR BO‘LSAK, YAGONA XALQ, YAGONA MILLAT BO‘LIB OLG‘A INTILSAK, KO‘ZLAGAN ULKAN MAQSADLARIMIZGA ALBATTA YETAMIZ!

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 26-dekabr kuni Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomani taqdim etdi.



— So‘nggi to‘qqiz yilda biz sizlar bilan, el-yurtimiz bilan birgalikda katta taraqqiyot yo‘lini bosib o‘tdik. Iqtisodiyotimiz yangidan shakllandi, bozor munosabatlari, ijtimoiy himoyani kengaytirdik, qonun ustuvorligini mustahkamladik. Eng muhimi, islohotlarimiz

samarasini har bir mahalla, har bir xonadon va har bir inson kundalik hayotida his qilmoqda, — dedi davlatimiz rahbari so‘zining avvalida. Qanchalik og‘ir bo‘lmasin, boshlangan demokratik islohotlar qat‘iy davom ettirilgani, xalqimizning qo‘llab-quvvatlashi va

yoshlarimizning g‘ayrat-shijoati, hamjihatlik asosi bo‘lgan mahallaning hayotimizdagi o‘mi va ta’siri kuchaytirilgani, odamlarning ongi va dunyoqarashi o‘zgarib, el-yurtimiz yanada jipslashgani, tadbirkor, dehqon va fermerlarning tashabbuskorligi va mardona mehnati, o‘zaro

manfaatli hamkorlikka asoslangan do‘stona tashqi siyosat hisobiga 2025-yilda barcha sohalarida ulkan yutuqlarga erishildi.

Bu yil tariximizda birinchi marta yalpi ichki mahsulotimiz 145 milliard dollardan oshdi. Joriy yil eksportimiz 23 foizga oshib,

33,4 milliard dollarga yetkazilishi ta’kidlandi. Eng muhimi, oltin-valyuta zaxiralarimiz ilk bor 60 milliard dollardan oshdi.

Iqtisodiyotimizga jalb qilingan xorijiy investitsiyalar hajmi 43,1 milliard dollarga yetdi. Jami investitsiyalarning yalpi ichki

mahsulotdagi ulushi 31,9 foizni tashkil etmoqda. Yetakchi xalqaro reyting agentliklari mamlakatimizning suveren reytingini “BB-” dan “BB” pog‘onasiga ko‘tardi.

[Davomi 4-betda](#)

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOEYEVNING OLIY MAJLIS VA O‘ZBEKISTON XALQIGA MUROJAATNOMASI

Assalomu alaykum, aziz yurtdoshlar!

Hurmatli deputat va senatorlar!

Muhtaram mehmonlar!

Bugun Oliy Majlisga va ko‘p millatli xalqimizga kelgusi yil uchun Murojaatnomani taqdim etar ekanman, avvalo, barchangizni sog‘-salomat, ko‘tarinki kayfiyatda ko‘rib turganimdan xursandman.

So‘nggi to‘qqiz yilda biz sizlar bilan, el-yurtimiz bilan birgalikda katta taraqqiyot yo‘lini bosib o‘tdik. Iqtisodiyotimiz yangidan shakllandi, bozor munosabatlari, ijtimoiy himoyani kengaytirdik, qonun ustuvorligini mustahkamladik. Eng muhimi, islohotlarimiz samarasini har bir mahalla, har bir xonadon va har bir inson kundalik hayotida his qilmoqda.

Bir so‘z bilan aytganda, biz islohotlarni aniq amaliy natijaga aylantirishni o‘rgandik. Buning tasdiq‘ini tobora yangicha qiyofa kasb etib borayotgan shahar va qishloqlarimizda, zamonaviy korxonalar, savdo-servis maskanlari, maktab, bog‘cha va shifoxonalar, obod ko‘cha va mahallalar, transport-logistika tizimi, raqamli xizmatlar misolida yaqqol ko‘rish mumkin.

Qadrlil vatandoshlar!

Bugungi kunda dunyoda sodir bo‘layotgan va yaqin-yaqingacha hech kim tasavvur qila olmagan o‘zgarishlar, davlatlar o‘rtasida iqtisodiy qarama-qarshilik, xavfsizlikka tahdidlar ortib borayotgan tahlikali bir vaziyatda sizlar bilan o‘ta murakkab yilni yakunlayapmiz.

Qanchalik og‘ir bo‘lmasin, boshlangan demokratik islohotlarimizni qat‘iy davom ettirganimiz; xalqimizning qo‘llab-quvvatlashi va yoshlarimizning g‘ayrat-shijoati; hamjihatlik asosi bo‘lgan mahallaning hayotimizdagi o‘mi va ta’siri kuchaytirganimiz; odamlarimizning ongi va dunyoqarashini o‘zgartirib, el-yurtimizni yanada jipslashtirganimiz; tadbirkor, dehqon va fermerlarimizning tashabbuskorligi va mardona mehnati; o‘zaro manfaatli hamkorlikka asoslangan do‘stona tashqi siyosatimiz hisobiga 2025-yilda barcha sohalarida ulkan yutuqlarga erishdik.

Avvalo, jahon miqyosida ishlab chiqarish va transport-logistika zanjirlari uzilgan, xomashyo va moliyaviy resurslar narxi oshgan sharoitda ham mamlakatimiz iqtisodiyoti ishonchli va barqaror o‘tishda davom etayotganini qayd etish lozim.

Bu natijalar dunyo hamjamiyati va nufuzli xalqaro tashkilotlar tomonidan e’tirof etilmoqda.

E’tibor bering, bundan to‘qqiz yil oldin iqtisodiyotimiz hajmini 100 milliard dollarga yetkazish biz uchun juda katta marra bo‘lib ko‘rinardi. Bu yil tariximizda birinchi marta yalpi ichki mahsulotimiz 145 milliard dollardan oshdi. Bunday yuksak natijalar xalqimizning, barchamizning qanday ulkan ishlarga qodir ekanimizni yaqqol namoyon etmoqda.

Global savdo tizimida “o‘yin qoidalari” o‘zgarayotgan bir paytda biz bu yil eksportimizni 23 foizga oshirib, 33,4 milliard dollarga yetkazamiz. Eng muhimi, islohotlarimiz uchun mustahkam moliyaviy baza bo‘ladigan oltin-valyuta zaxiralarimiz ilk bor 60 milliard dollardan oshdi.

Bu yil iqtisodiyotimizga jalb qilingan xorijiy investitsiyalar hajmi 43,1 milliard dollarga yetdi. Jami investitsiyalarning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 31,9 foizni tashkil etmoqda. Bu esa iqtisodiyotimiz kelgusi yillarda ham yuqori sur‘atlar bilan barqaror o‘tib borishi uchun zamin bo‘ladi.

O‘zbekistonning xalqaro maydondagi obro‘-e’tibori va nufuzi, xalqaro reytinglardagi o‘rni tobora mustahkamlanib bormoqda. Xususan, yetakchi xalqaro reyting agentliklari mamlakatimizning suveren reytingini “BB-” dan “BB” pog‘onasiga ko‘tardi.

Bu gaplar ko‘pchilikka oddiy bir fakt bo‘lib tuyulishi mumkin. Lekin iqtisodchilar, investor va bankirlar qog‘aqdar katta natijalar haqida borayotganini juda yaxshi tushunib turibdi. Birgina ana shu o‘zgarish tufayli chetdan jalb qilinadigan resurslarning foiz stavkasi 1-1,5 punktga pasayib, tashqi qarz xarajati yiliga kamida 300 million dollarga kamayadi.

Shuningdek, Jahon banki e’lon qilib boradigan Davlatlarning texnologik yetuklik indeksida O‘zbekiston 71 pog‘ona yuqori ko‘tarilib, dunyoning top-10 ta mamlakati qatoridan joy oldi.

Aholi farovonligi va biznesni o‘stirishga xizmat qiladigan infratuzilmani yanada yaxshilash bo‘yicha ham 2025-yil katta o‘zgarishlar yili bo‘ldi. Xususan, energetika sohasida tub burilish yasaganimiz hisobiga elektr ishlab chiqarish hajmini 85 milliard kilovatt-soatga yetkazdik.

Tasavvur qiling, 2017-yildagi 60 milliard kilovatt-soat generatsiya darajasida qolib ketganimizda, hozir iqtisodiyotimiz hajmini 2

karra oshira olarmidik? Ishlab chiqarishning o‘sib borayotgan talabini, 38 million aholi ehtiyojini qoplab bo‘larmidi?

Bu yil 188 ta mahalladagi 715 ming aholi yashaydigan xonadonlarga birinchi marta toza ichimlik suvi kirib bordi, yana 2 million 300 mingga yaqin aholining suv ta’minoti yaxshilandi. Yoki 867 ta “og‘ir” mahalladagi 470 mingta xonadonga tomorqalarni sug‘orish uchun ilk bor suv yetib bordi.

Joriy yilda aholiga 8 million 100 ming kvadrat metrli, 135 ming xonadondan iborat ko‘p qavatli uylar topshirilmoqda, odamlarning o‘zi ham yashash sharoitini yaxshilash uchun 19 million kvadrat metr maydonda qurilish qildi. Biznes vakillari tomonidan 24 million kvadrat metr noturar joy obyektlari barpo etildi.

Umuman, so‘nggi to‘qqiz yilda 210 million kvadrat metrli turar joy va noturar joy obyektlari foydalanishga topshirildi.

Bu raqamlarga urg‘u berib aytayotganim albatta bejiz emas. Agar yo‘l, suv, elektr va boshqa infratuzilmalar uchun zarur mablag‘ni topib bermaganimizda, quruvchilar va qurilish materiallari korxonalari uchun sharoit yaratib bermaganimizda, ipoteka tizimini yo‘lga qo‘ymaganimizda shuncha bunyodkorlik ishlari bo‘larmidi?

Joriy yilda 5 million aholimiz daromadli bo‘lib, ishsizlik darajasi 5,5 foizdan 4,9 foizga tushdi. Qariyb 1,5 million ehtiyojmand aholi kambag‘allikdan chiqdi, ilk bor 1 ming 435 ta mahalla “kambag‘allikdan xoli” hududga aylandi.

Kambag‘al oilalarga mansub 168 ming nafar bola davlat bog‘chalariga imtiyozli asosda qabul qilindi. Bu yildan boshlab, 208 ta bog‘chada birinchi marta inklyuziv ta’lim tizimini joriy etdik.

Ta’kidlash kerakki, yurtimizda kambag‘allik darajasi yil boshidagi 8,9 foizdan 5,8 foizga tushdi.

Bir eslang, bu ishlarni boshlaganimizda aholimizning uchdan bir qismi kambag‘allik chegarasiga yashardi. Kredit, subsidiya, kompensatsiya kabi 100 dan ziyod xizmatlar orqali ijtimoiy himoyaning mutlaqo yangi tizimini yo‘lga qo‘yganimiz va bularni mahalladagi “yetitlik”ning o‘ziga berganimiz natijasida 8,5 milliondan ziyod odam kambag‘allikdan chiqdi, ishsizlik 2 karra

qisqardi. Natijada uch yil oldin kambag‘allikni 2026-yil yakuni bilan 2 karra qisqartirish bo‘yicha olgan marramizni shu yilning o‘zida uddaladik.

Eng muhim yutuqlarimiz haqida so‘z yuritganda, azmu shijoatli sportchilarimizning nufuzli xalqaro musobaqalarda erishgan g‘alabalarini mamnuviyat bilan ta’kidlash o‘rinlidir.

Avvalo, O‘zbekiston futbolini uchun 2025-yil chinakam tarixiy yil bo‘ldi. Milliy terma jamoamiz ilk bor Jahon chempionatiga yo‘llanmani qo‘lga kiritdi. Mohir shaxmatchilarimiz Jahon kubogi musobaqalarida munosib ishtirok etdi. Ayniqsa, navqiron grossmeysterimiz Javohir Sindorov eng yosh jahon kubogi sohibi bo‘lgani barchamizga yuksak g‘urur bag‘ishlaydi.

Eng muhimi, shaxmat olamidagi yutuqlarimiz shu bilan to‘xtab qolgani yo‘q. O‘tgan haftada 9-17 yoshli shaxmatchilar o‘rtasida “rapid” va “blis” yo‘nalishlari bo‘yicha jahon chempionatida yuritmiz vakillari 5 ta oltin, 2 ta kumush va 5 ta bronza medalini qo‘lga kiritib, umumjamoa hisobida birinchi o‘rinni egalladi.

Bu yilgi Yoshlar Paraosiyo o‘yinlarida jasorat va matonat sohibi bo‘lgan sportchilarimiz 125 ta oltin, 77 ta kumush va 52 ta bronza medalini qo‘lga kiritib, ishtirokchi davlatlar orasida eng yuqori natijani qayd etdi.

Hech shubhasiz, iste’dodli o‘g‘il-qizlarimiz ta’lim, ilm-fan, madaniyat, san’at, sport va boshqa sohalarida erishayotgan katta yutuqlari bilan ham Yangi O‘zbekistonimiz ravnaqiga munosib hissa qo‘shmoqda.

O‘quvchi va talabalarimiz joriy yilda xalqaro fan olimpiadalarida 51 ta oltin, 101 ta kumush, 126 ta bronza medalini qo‘lga kiritib, o‘z bilim va salohiyatini butun dunyoga namoyish qildi.

El-yurtimizning faxri bo‘lgan bunday farzandlarimizga, ularning ota-onalari va ustoz-murabbiylariga yana bir chin dildan tahsin aytamiz.

Ma’lumki, O‘zbekiston kelgusi yili 46-Butunjahon shaxmat olimpiadasiga, 2027-yilda 20 yoshgacha bo‘lgan futbolchilar o‘rtasidagi jahon chempionatiga, 2029-yilda esa Yoshlar Osiyo o‘yinlariga mezbonlik qiladi.

Shu bilan birga, 2026-yilda yurtimizda ilk bor maktab o‘quvchilari o‘rtasida nufuzli

xalqaro kimyo va informatika olimpiadalari, Shanxay hamkorlik tashkilotiga a’zo davlatlar talabalari o‘rtasida muhandislik yo‘nalishlarida, Turkiy davlatlar texnikumlari o‘quvchilari o‘rtasida kasb yo‘nalishlarida xalqaro olimpiadalar o‘tkaziladi. Ushbu musobaqalarda ham farzandlarimiz munosib ishtirok etadi, deb ishonaman.

Bunday nufuzli tadbirlar Vatanimizni rivojlangan sport va ilm-fan mamlakatiga aylantirish, uning obro‘-e’tiborini yuksaltirishga xizmat qiladi.

Keyingi paytda yurtimiz global masalalar muhokama qilnadigan xalqaro muloqot maydoniga aylanib bormoqda. Xususan, bu yil Parlamentlararo Ittifoqning 150-yubiley Assambleyasi; UNESCO Bosh konferensiyasining sessiyasi; “Markaziy Osiyo — Yevropa Ittifoqi” sammiti va xalqaro Iqlim forumiga mezbonlik qilidik.

Shuningdek, O‘zbekiston, Tojikiston va Qirg‘iziston yitakchilarining mart oyida Xo‘jandda bo‘lib o‘tgan uchrashuvida birinchi marta uch mamlakat davlat chegaralarining tutash nuqtasi to‘g‘risidagi tarixiy shartnoma imzolandi hamda “Abadiy do‘stlik to‘g‘risida”gi deklaratsiya qabul qilindi.

Mintaqamiz davlat rahbarlarining yaqinda Toshkentdagi Maslahat uchrashuvida chog‘ida biz integratsiya jarayonlarini yangi sifat bosqichiga ko‘tarish uchun Markaziy Osiyo hamjamiyati strategik formatini tashkil qilish g‘oyasini ilgari surdik. O‘zbekistonni Markaziy Osiyo va Janubiy Kavkaz o‘rtasida strategik bog‘liqlik va barqarorlikni kuchaytirishi shubhasiz.

Shu bilan birga, oktyabr oyida Bryusselda O‘zbekiston va Yevropa Ittifoqi o‘rtasida Kengaytirilgan sheriklik va hamkorlik to‘g‘risidagi bitim imzolandi. Noyabr oyida bo‘lib o‘tgan “Markaziy Osiyo va AQSH sammiti” ko‘p tomonlama va uzoq muddatli sheriklikni sifat jihatidan mutlaqo yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qildi.

O‘tgan haftada Tokioda Markaziy Osiyo va Yaponiya yetakchilarining uchrashuvida ta’lim, tibbiyot, raqamli texnologiyalar, infratuzilma va sanoat sohalarini bo‘yicha muhim kelishuvlarga

erishdik. Shu haftaning boshida esa Sankt-Peterburgda Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi rahbarlari bilan bo‘lib o‘tgan uchrashuv ham hamkorligimizning dolzarb yo‘nalishlarini belgilab berdi.

Bularning barchasi xalqaro aloqalarimizni mazmun jihatidan yangi bosqichga olib chiqmoqda.

Biz dunyodagi uzoq-yaqin mamlakatlar bilan — Sharq va G‘arb, Shimol va Janub bilan hamkorlik ko‘priklarini qurishda davom etamiz. Muhtaram yig‘ilish ishtirokchilari!

Bundan ikki yil oldin “O‘zbekiston — 2030” strategiyasini qabul qilganimizda yalpi ichki mahsulot hajmini 2030-yilgacha 160 milliard dollarga yetkazishni belgilab olgan edik. Ko‘rib turibsizlar, mavjud salohiyatimiz, bugungi islohotlarimiz, tadbirkorlarimizning faolligi, xorijiy sheriklarimiz bilan hamkorligimiz o‘sib borayotgani hisobiga bu marraga 2026-yilning o‘zida bemaolol erisha olamiz.

Hozirgi global iqtisodiyotda raqobatga chidamli bo‘lish uchun malakali kasb egalari va mutaxassislar, zamonaviy texnologiyalar hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini unutmashlik lozim. Agar biz sanoatda — elektronika va elektrotexnika, biokimyo va polimerlar, farmatsevtika, mashinasozlik kabi yuqori qo‘shilgan qiymat yaratadigan sohalarini rivojlantirish; xizmatlarda — IT, sun’iy intellekt, moliyaviy texnologiyalar, konsalting, transport-logistika kabi katta daromad keltiradigan servislarini ko‘paytirish; qishloq xo‘jaligida — unumdorlikni oshirish uchun bioinjeneriyadan keng foydalanish, ilg‘or agrotexnika va suv tejaydigan usullarni faol qo‘llash; iqtisodiy o‘sish va ekologik barqarorlik o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlash uchun “yashil” energetika, chiqindisiz ishlab chiqarishga o‘tish; ta’lim va tibbiyotda — sifatini yangi bosqichga olib chiqadigan ilg‘or xorijiy tajribalarni keng joriy etish uchun yangi texnologiyalarni olib kirsak, kadrlarni ilm-fan va innovatsiyalarga asoslangan zamonaviy kasblarga tayyorlasak, kelgusi besh yilda iqtisodiyotimiz hajmini 240 milliard dollardan oshirishga barcha imkoniyatlarimiz bor.

[Davomi 2-betda](#)



2026-YIL – MAHALLANI RIVOJLANTIRISH VA JAMIYATNI YUKSALTIRISH YILI

Keyingi yillarda mahalla tizimini isloh qilish, jamiyatdagi o‘rni va ta‘sirini yanada yuksaltirishga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Natijada mahalla faqatgina an‘anaviy jamoatchilik instituti emas, balki aholining ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini hal etishda muhim tayanch nuqtaga aylandi.

USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O‘QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!



Jumladan, “mahalla yetilligi” tashkil etilgani mahalla faoliyatida mutlaqo yangi bosqichni boshlab berdi. Ushbu tizim orqali mahalladagi har bir oilaning holati o‘rganilib, ishsizlar, kam ta‘minlangan va ehtiyojmand qatlam vakillari aniq manzilli ro‘yxat asosida qo‘llab-quvvatlanmoqda. Bandlik, tadbirkorlikni rivojlantirish, kasb-hunarga o‘qitish va kreditlar ajratish kabi masalalar mahallaning o‘zida hal etilayotgani kambag‘allikni qisqartirishda sezilarli samara bermoqda.

Prezidentimiz Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga yo‘llagan Murojaatnomasida bunga alohida to‘xtalgani, mahalla tizimining jamiyat hayotidagi o‘rni va ahamiyati e‘tirof etilgani barchamizni cheksiz quvontirdi. 2026-yilni “Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili” deb e‘lon qilish taklifi mahallalar faoliyatini yanada kuchaytirish, aholi farovonligini oshirish yo‘lida muhim qadam bo‘ldi, deb hisoblayman.

Yangi yilning nomlanishi ham o‘z mazmun-mohiyati bilan har birimiz uchun tushunarli. Chunki mahalla — jamiyatning eng kichik, ammo eng muhim bo‘g‘ini.

MAHALLIY KENGASHLAR VAKOLATLARI VA MAS’ULIYATI YANADA OSHIRILADI



G‘ofir ALIYEV,
Xalq deputatlari Navoiy viloyati kengashi raisi

2025-yil yangi O‘zbekistonnı barpo etish, iqtisodiy barqarorlik, aholi farovonligini yuksaltirish nuqtayi nazaridan alohida ahamiyatga ega davr bo‘ldi deb bemaolaj aytilish mumkin. Zero, Prezidentimizning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga yo‘llagan Murojaatnomasida qayd etilgan har bir raqam, erishilgan tarixiy natijalarni bundan bor-yo‘g‘i 7-8 yil oldin tasavvur qilish ham mushkul edi.

Ha, ortda qolayotgan yilda amalga oshirilgan katta islohotlar yon-atrofimizdagi o‘zgarishlar, xalqimiz hayotidagi farovonlikda aks etyaptiki, bu barchamizga quvonch, g‘urur va kuch bag‘ishlaydi. Ayniqsa, mahalla tizimi islohotlarning bosh bo‘g‘iniga aylangani joylardagi muammolar hal etilishi bilan birga mavjud salohiyatni ro‘yobga chiqarishga zamin yaratmoqda.

Prezidentimiz mahallalardagi islohotlarga to‘xtalar ekan, bu boradagi ishlarni yanada yaxshilash maqsadida kirib kelayotgan 2026-yilni “Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili” deb e‘lon qilish taklifini bildirgani barchamizni xursand qildi.



Qobiljon OLTIIYEV,
Jizzax viloyati Forish tumanidagi “Uxum” MFY raisi

Inson birinchi qadam qo‘yadigan, tarbiya oladigan, quvonch va tashvishni qo‘shnilari bilan baham ko‘radigan maskan. Mahallada

tinchlik, tartib va hamjihatlik bo‘lsa, butun mamlakatda barqarorlik va taraqqiyot qaror topadi. Agar mahallamiz obod, yoshlari ish bilan band, keksalari e‘zozda bo‘lsa, bu, albatta, jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiladi. Bejiz “Mahalla obod bo‘lsa, mamlakat obod bo‘ladi”, deyilmaydi.

Bugun mahalladagi har bir islohot, har bir obodonchilik ishlari odamlar kayfiyatiga, ishonch va kelajakka ishonchiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatmoqda. Mahallada ishsizlik kamaysa, kambag‘allik qisqarsa, yoshlar o‘z o‘mini topsa, jinoyatchilik ham o‘z-o‘zidan barham topadi. Chunki ahil va farovon mahallada salbiy holatlarga o‘rin qolmaydi. Mahalladagi biror muammo chetda qolmasa, har bir oila qo‘llab-quvvatlash, bu umumiy taraqqiyotga olib keladi. Mahallaning kuchi ham shunda — u aholiga eng yaqin tizim.

Yosh mahalla raisi sifatida aytishni istardimki, yangi yilning mahalla bilan bog‘liq nomlanishi bizga katta mas‘uliyat va yangi vazifalar yuklaydi.

Davlatimiz rahbarining Oliy Majlis va xalqimizga jamiyat hayotining har bir jabhasini yanada rivojlantirish, xalqimiz farovonligini ta‘minlashga doir muhim vazifalar, aniq rejalarini taqdim etadigan Murojaatnomasi yil davomida dasturlamal bo‘lishi bilan qimmatli.

Murojaatnomada qayd etilgan uzoq muddatli tashabbuslarni amalga oshirishda zamonaviy bilimga ega, yangi mas‘ulumlarni bevosita anglab tushuna oladigan, xorijiy tillarni mukammal o‘zlashtirgan yoshlarning o‘rni beqiyos.

XORIJIY TILNI MUKAMMAL O‘ZLASHTIRGAN YOSHLAR MEHNAT BOZORINING RAQOBATBARDOSH YETUK KADRLARI BO‘LIB YETISHADI

Zero, bugun til bilgan, kelajak kasblarini egallagan yigit-qizlarga jamiyatga faol aralashib, ijtimoiy-siyosiy hayotdagi voqealiklarni to‘g‘ri talqin qiladi va bu jarayonda faol qatnashadi.

Bugungi kunda ta‘lim sohasida katta islohotlar kechmoqda. Xususan, ta‘lim-tarbiya jarayoni, darslik, metodika hamda moddiy-texnik baza bo‘yicha yondashuv tubdan o‘zgardi. So‘nggi yillarda chet tillarni o‘rganish sohasida sezilarli ishlar qilindi. Jumladan, 420 ta maktabda ikkita xorijiy tilga o‘qitish amaliyoti joriy etildi. “Xorijiy tillarni o‘qitish bo‘yicha eng yaxshi maktab” Prezident tanlovi joriy etilib, 280 o‘quvchi va 56 o‘qituvchi Britaniya, Germaniya va Fransiya ta‘lim sayohatiga yuborildi. Tanlov g‘oliblariga 225 milliard so‘m mukofot pullari ham berildi.

Sertifikatga ega o‘qituvchilarga ustama berish tizimi joriy qilinishi ortidan ko‘plab o‘qituvchilarning oyligi 10 million so‘mdan oshdi.

Sertifikatga ega o‘quvchilar soni so‘nggi to‘rt yilda 5 barobar ko‘payib, 11 mingdan 53 ming 204 nafargacha yetdi. Bu yoshlar orasida xorijiy tillarni o‘rganishga qiziqish jadal sur‘atda oshayotganidan dalolat. Oxirgi 2 yilda maktablarga 1 500 dan ortiq xorijiy mutaxassis jalb etilgani ham bu borada muhim omil bo‘lyapti.

Xususan, Toshkent shahridagi har bir maktabda kamida 1 nafardan xorijlik o‘qituvchi faoliyat yuritmoqda. Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan bu ko‘rsatkich kelgusida 2 barobar oshirilishi rejalashtirilgan.

Poytaxtimizda pilot tarzida boshlangan “Kelajak uchun xorijiy til”, ya‘ni “English for the future” loyihasi esa bevosita xorijlik

Kelgusi yilda mahallamizda ijtimoiy faollikni oshirish, tadbirkorlikni rivojlantirish, yoshlar va xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash, kam ta‘minlangan oilalarga yordam ko‘rsatish hamda obodonchilik ishlari yanada kuchaytirish uchun bor kuch va imkoniyatimizni safarbar etamiz.

Uxum — Forish tumanining eng katta mahallalaridan biri. 4400 ga yaqin aholi yashaydigan mahallamizdagi Uxum va Arsaf qishloqlari turizmga ixtisoslashgan. Har yili minglab xorijlik va mahalliy sayyoh tashrif buyuradi. 2026-yilda Uxumga turizm qishlog‘i maqomi berilishi kutilyapti. Bu qaror mahallamizni yanada obod qiladi. Obod turmushini farovon qilishda muhim ahamiyatga ega.

Shu ma‘noda, har birimiz mahallamiz ravnaqi uchun mas‘ulmiz. Birgalikdagi sa‘y-harakatlar, o‘zaro hurmat va hamjihatlik mahallalarimizni yanada obod qiladi. Obod mahalla esa yuksalgan jamiyat, barqaror mamlakat demakdir.



Sanjar OBIDOV,
Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirining maslahatchisi

Munosabat

Oliy Majlisga va ko‘p millatli xalqimizga Murojaatnomani Prezidentimizning xalq bilan ochiq muloqoti deb aytishga haqlimiz. Avvalgi yillardagi Murojaatnomalarning ham barchasini bevosita tinglash baxtiga muyassar bo‘lganman. Bu safar davlatimiz rahbari 9 yillik ishlarni tahlil qildi. Amalga oshirilgan islohotlarga ortga qarab baho berdi

REJADAGI MARRALAR QAMROVI KENGAYMOQDA
BU FAROVONLIK DARAJASI HAM OSHADI DEMAKDIR

Shuhrat SIROJIDDINOV,
akademik

Avvalgi Murojaatnomalarda juda ko‘p masalalar o‘rtaga tashlanar, kamchiliklar ko‘rsatilar, ularni bartaraf etish talablari qo‘yilar edi. Bugun esa mamlakatimiz yetakchisining o‘sha sa‘y-harakat va erishilgan natijalardan ichki qoniqish bilan gapirgani, natijalarni sarhisob qilganini sezdim.

Shuningdek, Prezidentimiz ishlar shiddati vasur‘ati “O‘zbekiston—2030” strategiyasida belgilangan aksariyat rejalarini uddalash imkonini bergani, endi marrani kattaroq olib, yangi dastur qilishimiz lozimligini, unda iqtisodiy taraqqiyot, tiklanish, farovonlik, kambag‘allikka qarshi kurash, umuman, xalqimiz kundalik hayotining barcha jabhalariga tegishli barcha dasturlar qamrab olinishi, takomillashirilishini ta‘kidladi. Bu, albatta, qoniqish hosilasidir.

“Erishilgan ulkan natijalar, yangi ustuvor vazifalar “O‘zbekiston — 2030” strategiyasini qayta ko‘rib chiqishni taqozo etmoqda. Yurtimizning kelgusi besh yillik taraqqiyotiga daxldor bo‘lgan ushbu hujjat keng jamoatchilik muhokamasidan o‘tkazilib, aholimizning fikr-mulohazalari asosida

takomillashiriladi. Parlament vakillarini ham bu jarayonda o‘z takliflari bilan faol ishtirok etishga chaqiraman”, dedi Prezidentimiz.

“Mahalla tizimida odamlar kutib turgan suv, elektr, gaz muammolari, aholi daromadi masalalari qayta ko‘rib chiqiladi. Davlatimiz rahbari barcha muammolar yaqin besh yillikda qanday yechim topishi, ularni amalga oshirish mexanizmlari haqida gapirdi, fikrlariga asosli izohlar keltirdi.

Bu bilan Prezidentimiz o‘sha 2017-yildan har bir yo‘nalishni chamalab, rejalab kelgani, shunday natijalarni kutganini isbotlab berdi. Davlatimiz rahbari turli yig‘ilish va chiqishlarida bejiz har bir masala va muammoga murojaat qilishning vaqti keladi, yechilmagan muammolarning o‘zi qolmaydi, deb ta‘kidlab kelmaydi. O‘zim ishtirok etgan qator tadbirlarda ham biror masalani tilga olib, “Mana, endi uning yechimiga kirishish vaqti keldi”, deb aytganiga ko‘p guvoh bo‘lganman.

Bugungi Murojaatnomada bildirilgan takliflar, tashabbus va rejalar aynan hozirdan ijrosiga kirishish vaqti kelgan muammolardir. Ular kelgusi besh yilda amalga oshirilishi rejalashtirilgan masalalardan iborat. Demak, 2030-yilgacha yanada katta marralarni olamiz va davlatimiz rahbari boshchiligidagi xalqimiz bilan hamjihatlikda kutilgan natijalarga erishamiz.

Prezidentimiz ta‘biri aytganda, bugun biz o‘rtacha daromadi yuqori bo‘lgan davlatlar qatoridan o‘rin olishga harakat qilyapmiz. Galdagi vazifa esa rivojlangan mamlakatlar darajasiga yetishdan iborat. Shu ma‘noda, Murojaatnomamiz mazmun-mohiyati tarixiylik kasb etadi.

KELAJAKKA QARATILGAN ISHONCHLI “YO‘L XARITASI”

Joriy yilgi Murojaatnoma mazmun-mohiyati, qamrov doirasi va strategik ahamiyati bilan har qachongidan ham zalvorli bo‘ldi. Unda Prezidentimiz so‘nggi to‘qqiz yil davomida amalga oshirilgan islohotlarni izchil tahlil qilib, mamlakat taraqqiyotida erishilgan yutuqlarni aniq raqam va dalillar asosida ko‘rsatib berdi. Bu esa yangi O‘zbekistonnı barpo etish yo‘lidagi islohotlar izchil, puxta va uzoqni ko‘zlagan holda kechayotganini yaqqol namoyon etdi.

Murojaatnomada mahalla infratuzilmasini rivojlantirishdan tortib, ilmiy-texnika va innovatsiya sohalarida yangi bosqichga chiqishgacha bo‘lgan masalalar bir-biri bilan uzviy bog‘liq holda yoritildi. Birinchi o‘zbek kosmonavtini fazoga uchirish tashabbusi esa yoshlar uchun faqat ilmiy yutuq emas, balki cheksiz imkoniyatlar ramzi bo‘ladi. Bu g‘oya yosh avlodning orzu va maqsadlarini kengaytirib, ularni katta marralar sari ilhomlantiradi.

Ayniqsa, yoshlarga oid masalalar Murojaatnomaning markaziy yo‘nalishi sifatida belgilandi. Ta‘limga kiritilayotgan investitsiyani ko‘paytirish, zamonaviy maktablar, kasb shaharchalari va texnikumlar barpo etish orqali har yili yuz minglab yoshlarni zamon talab qilayotgan kasblarga o‘qitish yoshlar kelajagiga qaratilgan ishonchli “yo‘l xaritasi”ning amaliy ifodasidir. Kasbiy ta‘limni



Dilnoxon KATTAXONOVA,
Yoshlar ishlari agentligi direktorining birinchi o‘rinbosari

rag‘batlantirish maqsadida stipendiyalar joriy etilishi yoshlarning o‘z ustida ishlashi va jamiyatda munosib o‘rin egallashiga yo‘l ochadi.

Shu bilan birga, AT sohada yoshlar tashabbusini qo‘llab-quvvatlash, “Raqqamli startaplar” dasturini kengaytirish, xususiy startap markazlarini rivojlantirish uchun foizsiz ssudalar ajratilishi yoshlarni qo‘shimcha qiymat yaratishga, yangi ish o‘rinlari ochishga va global bozorga chiqishga undaydi. Bu, o‘z navbatida, ularni faol ijtimoiy kuch sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

Ushbu Murojaatnoma yoshlar siyosati va mahalla tizimi faoliyatida yangi sifat bosqichini boshlab beruvchi muhim dasturiy hujjattir. U 10 mingga yaqin mahallada faoliyat yuritayotgan yoshlar yetakchilari uchun katta mas‘uliyat bilan birga ulkan ruhiy kuch va ishonch manbai bo‘ladi.



2025-yil 27-dekabr, 271-son

Ma'rifatparvar bobomiz Cho'lp'oning "Adabiyot yashasa, millat yashaydi", degan purma'no o'g'itlari bugungi O'zbekiston sharoitida teran ifodasini topmoqda. Zero, har qanday xalqning o'zligi, tarixiy ildizlari va porloq kelajakka intilishlari, avvalo, uning bebaho badiiy merosida namoyon bo'ladi. Insoniyat tamadduni tarixida hech qaysi adabiyot o'z qobig'ida yakka holda rivojlanmagan, aksincha, jahon so'z san'ati durdonalari bilan uyg'unlashib, umuminsoniy qadriyatlarni yuksaltirishga xizmat qilgan. Shu ma'noda, mamlakatimizda adabiyotga, xususan, badiiy tarjima san'atiga qaratilayotgan yuksak e'tibor ma'naviy hayotimizda yangi sahifa ochdi desak ayni haqiqatdir.

"Adabiy do'stlik — abadiy do'stlik" tamoyiliga asoslangan keng ko'lami harakatlar xalqimizni jahon madaniyatidan bahramand etish hamda milliy adabiyotimizni dunyoga tanitishda muhim omil sanaladi. So'nggi yillarda "Turkiy adabiyot durdonalari", "Jahon bolalar adabiyoti durdonalari" kabi 100 jildli muhtasham loyihalarning hayotga tatbiq etilishi fikrimizning yorqin dalili bo'ladi. Ayniqsa, besh qit'a ijodkorlari merosini qamrab oluvchi tarjima asarlar yosh avlod qalbida egulik, insonparvarlik va yuksak fazilatlarini kamol toptirishda beqiyos ahamiyat kasb etadi.

Mazkur jarayonda Prezidentimizning tegishli qarori asosida badiiy tarjima sohasida Muhammad Rizo Ogahiy nomidagi xalqaro mukofot ta'sis etilishi tarixiy voqea sifatida e'tirof etilmoqda. Ushbu nufuzli mukofot nafaqat zahmatkash tarjimonlar mehnatini munosib qadrlash, balki o'zbek tili va adabiyotining xalqaro maydondagi nufuzini yanada oshirishga xizmat qiluvchi muhim vosita vazifasini o'taydi.

Poytaxtimizdagi "Renessans" kino uyida mazkur mukofot sovrindorlarini taqdirlashga bag'ishlangan tantanali tadbir o'tkazildi.

Mukofot tanloviga jami 60 tarjimonidan ijodiy ishlar qabul qilindi. Bu tanlov nominatsiyasining har biriga o'rta hisobda 10 nafardan nomzod to'g'ri keldi deganidir.

Prezidentimizning tegishli qarorida belgilangan 6 ta asosiy nominatsiyadan tashqari qo'shimcha 3 ta rag'batlantiruvchi mukofot ajratildi. Bular — "Badiiy tarjima rivojiga qo'shgan hissasi uchun" (O'zbekiston fuqarolariga), "O'zbek adabiyotini xorijda faol targ'ib qilganligi uchun" (xorijlik tarjimonga), "Umiddli tarjimon" (yosh tarjimonlarga).

Adabiyot va do'stlik bayrami sifatida tashkil etilgan taqdirlash marosimida xalqaro mukofot g'oliblarining har biri maxsus diplom, ko'krak nishoni va bazaviy hisoblash miqdorining 300 baravari, rag'batlantiruvchi



mukofot egalari esa faxriy yorliq va bazaviy hisoblash miqdorining 55 baravari miqdorida bir martalik pul mukofoti bilan taqdirlandi.

Said Mahmud Said MUBASHIR
(Saudiya Arabistoni),
tarjimon, o'zbek adabiyotining nasriy asarlaridan xorijiy tillarga tarjima yo'nalishi g'olibi:

— Hozirgi hayajonimni so'z bilan ta'riflash juda qiyin. Bu g'oyat hayajonli va quvonarli jarayondir. Boisi, men birinchi marotaba xalqaro mukofot sovrindori bo'lmoqdaman. O'ylaymanki, Abdulla Qodiriyning "Mehrobdan chayon" asari arab mamlakatlarida O'zbekistonning boy tarixi va madaniyatini chuqur ko'rsatib beradi. Ushbu asami tarjima qilishimga, birinchi navbatda, arab dunyosida o'zbek adabiyoti to'g'risida ma'lumotlar juda kamligi, yo'q desak ham bo'lishi sabab bo'ldi. Ularda asosan, tarix haqida ma'lumotlar bor, lekin eskirgan. Ya'ni XIX-XX asrlarda O'zbekistonda yoki Markaziy Osiyoda bo'lgan tarixiy voqealar haqida ma'lumotlar mavjud emas. Shuning uchun arab mamlakatlarini o'zbek adabiyoti bilan tanishtirish men uchun bir vazifaga aylandi. Bu mukofot bizni kelajakda yanada katta tarjimalarga undaydi va kuch bag'ishlaydi. Ayni kunlarda Alisher Navoiyning "Mabhub ul-qulub" asari tarjimasining oxirgi bosqichiga yetib keldim. Shu bilan birga, Abdurauf Fitratning "Hind sayyohining bayonoti"ni ham tarjima qilib bo'ldik. O'ylaymanki, 2026-yilda butun arab dunyosi ushbu asarlarni mutolaa qilish imkoniga ega bo'ladi.

Mixail SINELENIKOV (Rossiya),
tarjimon, o'zbek she'riy asarlaridan xorijiy tillarga tarjima yo'nalishi g'olibi:

— Bolalik yillarim Qirg'izistonda o'tgan, O'sh davlat pedagogika instituti tarix fakultetini tamomlaganman. Meni O'zbekiston bilan yorug' tuyg'ular va o'zbek mumtoz she'riyatidan hayratlanish hislari bog'lab turadi. O'sh, Jalolobod, Andijon shaharlari men uchun qadrdon. Men dunyoning ko'p shaharlarini ko'rganman, uzoq yillardan beri Moskvada yashayman, lekin xayolan hamisha qadrdon makonlarimni ko'rib turaman.

Bolaligimda turli millat vakillari bo'lgan tengdoshlarim bilan o'ynaganman, o'zbek va qirg'iz xonadonlarida mehmon bo'lganman, shu tillarda qo'shiqlar tinglaganman va she'rlar yodlaganman. Yoshim ulg'aygach, turli tarixiy davrlarda yashab ijod qilgan o'zbek shoirlarining she'rlarini tarjima qila boshladim, turli to'plamlar tayyorladim. Yaqin uch yil ichida 2 jildli "O'zbek she'riyati antologiyasi" va alohida "Zamonaviy o'zbek she'riyati antologiyasi"ni tuzdim.



Men Alisher Navoiy ijodidan hamisha hayratdaman. Ogahiy she'riyati bilan tanishganimda esa 13 yoshda edim. Uning g'azallaridan hayratga tushganim hamon esimda. Keyinroq Ogahiy serqirra va ulug' ijodkor ekaniga amin bo'ldim. U mirob, tarixchi, davlat arbobi, shoir va tarjimon sifatida faoliyat ko'rsatgan. Mana, bugun Ogahiy nomidagi xalqaro mukofotga sazovor bo'lib turibman. Hozir bir guruh mutaxassislar birgalikda g'oyat hayajonli ish bilan mashg'ulmiz — Alisher Navoiy she'riyati tarjimasini bilan bandmiz. Kelgusi yilning yozida Navoiy g'azallaridan iborat katta devonni nashr qilamiz. Unga kirgan she'rlarning aksariyati hali rus tiliga tarjima qilinmagan.

Shamenaz BANO (Hindiston),
tarjimon, o'zbek bolalar adabiyoti namunalaridan xorijiy tillarga tarjima yo'nalishi g'olibi:

— Bu mukofotni olganimdan judayam xursandman. Tarjimon sifatida birinchi marta taqdirlanishim. Oldin o'qituvchi sifatida, shoir sifatida taqdirlanganman. O'zbek adabiyotini o'quvchi sifatida juda ham sevir o'qiyman. Masalan, Alisher Navoiy va Anvar Obidjon asarlarini tarjima qildim. Endi 2026-yilning iyun oyigacha qator o'zbek adiblari asarlarini tarjima qilish harakatidaman. Ayniqsa, Anvar Obidjonning "Meshpolvon" asarini tarjima qilish menga judayam yoqdi. Asarning bolalar tilida yozilgani menda katta taassurot qoldirdi.

Abdulla SHER,
O'zbekiston xalq shoiri, xorijiy tillarda yaratilgan she'riy asarlardan o'zbek tiliga tarjima yo'nalishi g'olibi:

— Inson har bir narsani — qamchini ham, silashni ham o'z tanasida, ruhan his qiladi. Mana shu farq ijobiy bir hodisaki, ruhiyatni ko'tarish yana yangidan yangi tarjimalarga yo'l ochadi, bu — birinchiidan. Ikkinchiidan, O'zbekistonning jahonga chiqishi va ayni paytda jahonning O'zbekistonga kirib kelishidir. Mana shu ikkita hodisa ushbu tadbirga bir-biri bilan uyg'unlashib ketgan. Bu O'zbekistonning yanada yuksalish yo'lida davom etayotgan o'ziga xos yangi bosqichdir. Ayni tadbir, nazariyda, tarjimonlar ijodida katta iz qoldiradi. Men ham buni ko'p yillik mehnatimning o'ziga xos qadrlanishi deb bilaman. Prezidentimizga mazkur qarorni qabul qilgani uchun tashakkur bildiraman. Shuningdek, ayni asarlarni tarjima qilishga

Adabiyot yashasa — millat yashaydi

undagan ustozlarga, hamkasblarga ham rahmat aytmoqchiman.

Tohir QAHHOR (O'zbekiston),
tarjimon, xorijiy tillarda yaratilgan she'riy asarlardan o'zbek tiliga tarjima yo'nalishi g'olibi:

— Tarjimonlar uzoq yillar erinmay mehnat qilib tursa, haqiqiy ma'noda shoir-tarjimon, yozuvchi-tarjimon bo'lsa hamda adabiyotimizga yangi ruh olib kiradigan asarlarni tarjima qilsa, bunday mehnat, albatta, e'zoz topishini mazkur tadbirga ko'rib, guvohi bo'ldim.

Mana, birgina misol, Abdulla Sher bir umr rus, ingliz va nemis tillaridan mohirona tarjima qilgan. Shuning uchun ham uning ijodi e'zoz topib kelmoqda. Bu mukofot tarjimonlarga katta ruh beradi, qalamini charxlashga yo'l ko'rsatadi.

Nodirabegim IBROHIMOVA
(O'zbekiston),
tarjimon, xorijiy tillarda yaratilgan bolalar adabiyoti namunalaridan o'zbek tiliga tarjima yo'nalishi g'olibi:

— Hozir judayam hayajondaman. Tarjimaga 15 yoshimdan kirishganman. Sarhisob qilsam, 20 yildan oshibdi. Lekin o'zimni hali ham yosh tarjimonday, o'rganuvchiday his qilaman. Chunki ustozlarimiz Ibrohim G'afurov, Vafo Fayzulloh, Olim Otaxonga izdosh, munosib bo'lishga harakat qilganmiz. Bugun arizmas mehnatimizni Muhammad Rizo Ogahiy nomidagi xalqaro mukofotga loyiq ko'rishganidan behad xursandman.

Tarjimani xalqlar o'rtasidagi oltin ko'prik deyish mumkin. Mana shu ko'prikning mustahkam bo'lishiga o'zgina bo'lsa ham hissa qo'shayotganimizdan o'zimizda faxr hissinu tuydim. Bu men uchun boshlanishdir. Chunki hali oldinda jahon adabiyotining sara namunalarini tarjima qilishni rejalashtirib qo'yg'anman. Toki kuchim, qalbimda tarjimaga mehrim bor ekan, bu mash'ala hech qachon so'nmaydi deb niyat qilaman.

Vafo FAYZULLOH (O'zbekiston),
tarjimon, rag'batlantiruvchi mukofot sohibi:

— Mazkur mukofotni men uchun faqat shaxsiy yutuq emas, balki tarjimonlik qadrlanayotgani, badiiy tarjimonning jamiyat ma'naviy hayotida muhim o'rin tutayotgani e'tirofi deb bilaman. Muhammad Rizo Ogahiy

uchun O'zbekiston Prezidentiga tarjimonlarni qo'llab-quvvatlagani, tarjima ishlariaga alohida e'tibor qaratgani uchun katta rahmat deymen. Ushbu mukofotni o'zimga xalqlar o'rtasidagi do'stlikni, adabiy aloqalarni mustahkamlashdagi bir vazifa deb bilaman. Bu yo'lida mehnat qilishda davom etaman. 2004-yildan beri o'zbek adabiyotidagi asarlarni tarjima qilish bilan shug'ullanaman. Doktorlik dissertatsiyamda ham O'zbekiston xalq shoiri Erkin Vohidov she'rlarini turk tiliga tarjima qilib, uning uslublari, xususiyatlari bo'yicha ishladim. Undan keyin yozuvchi Xayriddin Sultonning hikoyalari turk tiliga tarjima qilib, Turkiyada chop ettirdim. O'zbekiston xalq yozuvchisi Isajon Sultonning "Alisher Navoiy" romanini turk tiliga tarjima qildim. U yaqinda kitob holida sotuvga chiqish arafasida. Hozir Nazar Eshonqul hikoyalari tarjimasini ustida ishlayapman.

Saidjalol SAIDMURODOV (O'zbekiston),
tarjimon, rag'batlantiruvchi mukofot sohibi:

— Muhammad Rizo Ogahiy nomidagi xalqaro mukofot keng kitobxonlar auditoriyasida jahon adabiyotining



nomini olgan mukofot mas'uliyatni ham oshiradi, chunki u zot milliy madaniyatimiz va ma'rifatimiz tarixida alohida o'rinda ega.

Badiiy tarjimaga qiziqishim kitob mutolaasi orqali paydo bo'lgan. Turli xalqlar adabiyotini o'qir ekanman, asarlarni ona tilimizda ham shunday ta'sirchan va ravon o'qish mumkin bo'lsa kerak degan fikr tinchlik bermas edi. Shu ehtiyoj meni tarjimonlik yo'lida boshladi. Pushkinning "Boqchasaroy fontani" dostonini Usmon Nosir tarjimasida, Sergey Yeneninning "Fors taronalari"ni Erkin Vohidov tarjimasida o'qiganman, shoir va tarjimon sifatida Mirtemir, Abdulla Oripov ijodiy merosini o'rganganman. Jahon adabiyoti namunalarini o'zbek tiliga tarjima qilish ustida ishladim. Frans Kafkaning ikki yirik asari — "Jarayon" va "Qal'a" romanlarini, Moris Meterlink (Belgiya), Ryunoske Akutagava (Yaponiya), Knut Hamsun (Norvegiya), Xorre Luis Borxes (Argentina), Chingiz Aytmatov (Qirg'iziston) hikoyalari, O'ljaz Sulaymonov (Qozog'iston), Sharl Bodler, Pol Verlen va Artur Rembo (Fransiya), Ivan Bunin, Nikolay Gumilyov, Sergey Yesenin, Marina Svetayeva va Iosif Brodskiy (Rossiya) she'rlarini o'zbek tiliga o'girdim.

Vali Savash YELOK (Turkiya),
tarjimon, rag'batlantiruvchi mukofot sohibi:

— Ushbu mukofotga sazovor bo'lganimdan juda xursandman. Shuning

insonparvarlik tuyg'ularini yuksaltirishga xizmat qilguvchi eng sara namunalarini milliy adabiyotimizga olib kirayotgan, qolaversa, adabiyotimizning sara asarlarini chet ellarda faol targ'ib qilayotgan fidoyi tarjimonlar mehnatiga oliy e'tirof bo'ldi, desak adashmaymiz.

O'zbek tiliga tarjima bo'layotgan bugungi asarlar orasida o'qin-o'qin g'aliz va tushunarsiz jumalar uchrab qoladi. Shunday hollarda matn o'zbek tiliga moslanmasa, kitobxonni "mayib" qilishi turgan gap. Ammo dunyo adabiyotining Muhammad Rizo Ogahiy nomidagi xalqaro mukofot sovrindorlari — ustoz tarjimonlar o'zbekchalashtirgan asarlari allaqachon adabiyotimizda tup qo'yib, palak otgan, kitobxonlarning ko'ngliyu javonidan mustahkam o'rin egallagan. Zotan, ular o'g'irgan tarjima asarlar xalqimiz, ayniqsa, yosh avlodning ma'naviy-intellektual salohiyati, ong-tafakkuri, dunyoqarashini yangi bosqichga olib chiqish, vatanga, elga muhabbat, sadoqat tuyg'usini shakllantirishda ayrica ahamiyat kasb etadi.

Men ustoz tarjimonlarimiz qatorida turganim, ularga izdosh sifatida Muhammad Rizo Ogahiy nomidagi xalqaro tanlovning rag'batlantiruvchi mukofotiga sazovor bo'lganimdan xursandman.

"Yangi O'zbekiston" muxbiri Jonibek ALIJONOV tayyorladi.

"Yangi O'zbekiston" va "Правда Востока" gazetalar tahririyati" DM

MUASSIS:
O'zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqdir qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahilalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatlari chop etilishiga "SHARQ" NMAK mas'ul.
Bosmaxona telefoni: (71) 233-11-07.

Qabulxona: (71) 233-56-33 Devonxona va e'lonlar: (71) 233-70-98 E-mail: info@yuz.uz Veb-sayt: www.yuz.uz (71) 233-47-05

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma G-1246.
34211 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

"SHARQ" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi.

Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.

Navbatchi muharrir: Dilshod Ulug'murodov
Musahhih: Malohat Mingboyeva

Manzilimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko'chasi, 85-uy

O'za yakuni — 00:30